



THE CONCEPT, ESSENCE AND TYPES OF LIABILITY FOR VIOLATION OF ENVIRONMENTAL LEGISLATION

Durdonakhan Inomjonova

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ecology, legislation, liability, concept, types.

Received: 10.04.25

Accepted: 12.04.25

Published: 14.04.25

Abstract: This article analyzes the types of liability established for violation of environmental legislation, the factors and causes of their occurrence on the basis of legislation and provides examples in the appropriate order.

EKOLOGIYA QONUN HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TURLARI

Durdonaxon Inomjonova

magistratura tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekologiya, qonunchilik, javobgarlik, tushunchasi, turlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologiya oid qonunchilikni buzganlik uchun belgilangan javobgarlikning turlari, ularni keltirib chiqarish omillari va sabablari qonunchilik asosida tahlil qilingan va tegishli tartibda misollar bilan yoritilgan.

ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ВИДЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НАРУШЕНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ОБ ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Дурдонахон Иномжонова

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: законодательство, понятие, виды.

экология, ответственность,

Аннотация: В статье анализируются виды ответственности, установленные за нарушения природоохранного

законодательства, факторы и причины их возникновения на основе законодательства, а также иллюстрируются примерами в соответствующем порядке.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish – har bir fuqaroning Konstitutsiyaviy burchidir. Shu bois, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish prokuratura organlarining jamiyat, ayniqsa, kelajak avlodlar oldidagi eng muhim vazifalaridandir

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyayev

Kirish: Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash choralari tizimida qonun hujjatlariga rioya qilmaganlik, ekologik talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik choralari muhim ahamiyat kasb etadi ushbu huquqiy jarayon ekologik sohada qonun buzilishlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik javobgarlik deganda, huquq normalarini buzganlik uchun jazo choralari qo'llash oqibatida huquqbuzarga salbiy oqibatlar tug'dirish va davlat tomonidan huquq talablarini bajarishga majbur qilish tushuniladi va bu huquqbuzarlikka qarshi kurashning muhim huquqiy vositasidir.

Ekologiyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ushbu xususiyatlar o'simlik va xayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni taksa uslubida yani davlat tomonidan aniq belgilangan baho miqdori asosida undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun mahsus jazo choralari, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va undan mahrum qilish choralari qo'llashdan iboratdir. Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga ega bo'lishi lozim:

Tabiiy obyektlarda foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalarni buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralari qo'llash;

Atrof tabiiy muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash;

Yangi ekologik huquqbuzarliklarni sodir etishni oldini olish maqsadida ogohlantirish.

Hozirgi davrda ko'pchilik olimlar tomonidan "ekologik huquqiy javobgarlik" termini qo'llaniladi. Ushbu terminni qo'llanilishi huquqning kompleks tarmog'i bo'lmish ekologik huquq konsepsiyasi, o'ziga mustaqil va yaqin tarmoqlar, ya'ni yer, tog', suv, o'rmon huquqi hamda tabiatni huquqiy muhofaza qilish bilan chambarchas bog'liq. Buyuk rus ekologik olimi N.F.Reymers ekologiya keng ma'noda "insoniyatning yashab ketishi haqidagi ta'limot" deb

ta'kidlagan. Shu ma'noda inson tabiatga emas, balki tabiat insonga kerak shu bois uni asrash va kelajak avlodga qoldirish muhim ahamiyatga ega.

Ekologik javobgarlik bo'yicha ijtimoiy munosabatlar ekologik huquq buzarlilik sodir etilganda vujudga keladi. Ekologik huquq buzarlilik deganda tabiiy resurlardan foydalanish va ularning muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlatini buzuvchi aybli, noqoqnuniy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ekologik huquqbuzarlilik sodire tilganda atrof tabiiy muhitga hamda u orqali inson salomatligiga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish havfi tug'iladi. Ammo ma'lum bir xil xolatlarda zarar ekologik huquqbuzarlilikni belgilashda hisobga olinmasligi mumkin, chunki tabiiy resurslardan foydalanish huquqini buzish oqibatida ekologik munosabatlarning boshqa bir subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi mumkin. Masalan hech kim tomonidan foydalanilmayotgan yer maydonini o'zboshimchalik bilan egallab olishda davlatning yerga bo'lgan mulk huquqi buziladi.

Ekologik huquqbuzarliliklar **obyekti** tabiiy resurlar, atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish bo'yicha belgilangan tartibi hisoblanadi. Ekologik huquqbuzarliliklarning subtyekti esa uni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Ekologik huquqbuzarlilikning **obyektiv tomoni** hatti harakatning noqoqnuniyligi, ekologik zararni yetkazish yoki yetkazish havfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlarning boshqa subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi, ushbu hatti-harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtasidagi sababi bog'lanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbuzarlilikning **subyektiv tomoni** deganda huquqbuzarning aybi tushunilishi lozim. Huquqbuzarning aybi qasdan yoki ehtiyotsizlik shaklda vujudga kelishi mumkin. Ekologik huquqbuzarlilik **qasddan sodir etilayotganda** huquqbuzar ta'qiqlagan qoidani yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzayin yoxud bajarmaydi va bunda u o'z hatti-harakatlari natijisida zararli oqibatlarni kelib chiqarishi bilan hamda ongli ravshda unga yo'l qo'yadi. Masalan, yerlarni o'zboshimchalik bilan ehallab olish, ruhsatsiz ov qilish yoki daraxtlarni kesish va boshqalar.

Ehtiyotsizlik oqibatida huquqbuzarlilik sodir etilganda, huquqbuzar o'z hatti harakati natijasida salbiy oqibatlarni kelib chiqishini bila turib ular vujudga kelmaydi deb hisoblaydi yoki zararli oqibatlar kelib chiqishi mumkunligini oldindan ko'rishi lozim va mumkun bo'lgan xolda uni oldindan ko'ra bilmaydi. Masalan, chiqindilarni tozalovchi nosoz uskunalarni ishlatish, kimyoviy moddalarni me'yoridan ortiq ishlatish va boshqalar.

Ekologik huquqbuzarlilik o'zining havflilik drajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqaroli(mulkiy) huquqbuzarlilik hamda intizomiy xatti-harakat tarzida bo'lishi mumkun. Ekologik huquqbuzarliliklar uchun tegishlicha intizomiy, moddiy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik huquqiy(mulkiy) javobgarlik qo'llaniladi. Bundan tashqari ekologik huquqbuzarlilikni sodir etgan shaxslarning tabiiy resurlardan foydalanish huquqini cheklanishi, to'xtatib turilishi va undan mahrum etilishi mumkun.

Ekologik sohada qonunchiliklarni buzganlik uchun javobgarlik bu albatda sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikning ijtimoiy havflilik darajasi va yetkazilgan zarar xolatlaridan kelib chiqib baholanishi mumkun. Xususan, ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun intizomiy javobgarlik korxona, tashkilot va muassasalar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ekologik sohada intizomiy javobgarlik qo'llanilishi uchun xodimga tabiiy resurslaran foydalanish va ularni muhofaza etish vazifalari yuklatilgan bo'lishi lozim. Ushbu vazifalar mehnat shartnomalarida yoki lavozim yo'riqnomalarida o'z aksini topadi. Masalan, xodim atrof tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarish xisobotini notog'ri yuritgan bo'lishi mumkun yoki tozalash uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik va boshqa mehnat vazifalari bilan bog'liq ekologik majburiyatlarni bajarmaganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Mehnat kodeksining 312-moddasiga binoan mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga quyidagi **intizomiy jazo choralarini** qo'llashga haqli:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish

Ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda, intizom to'g'risidagi ustavlar yoki nizomlarda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Atrof tabiiy muhitga ekologik talablar buzilishi oqibatida yetkazilgan zarar aybdor shaxsdan undiriladi, agar aybdor shaxs yuridik shaxs bo'lsa, u zararni qoplash majburiyati bilan birga, ushbu zarar yetkazilishida bevosita aybdor bo'lgan xodimni moddiy javobgarlikka tortish huquqiga ega bo'ladi.

Korxona, tashkilot, muassasaning atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan xodimning fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan mulkiy javobgarlikdan farqlash lozim. Moddiy javobgarlik mulkiy javobgarlikdan undiriladigan zararining miqdorini belgilash va zararining faqat xodimning mehnat munosabatlari natijasida vujudga kelishi bilan farq qilinadi.

Xodimning moddiy javobgarlikka tortish tartibi va shartlari mehnat qonun hujjatlari bilan belgilandi. Moddiy javobgarlikning vujudga kelishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak:

Xodimning noqoqnuniy xatti-harakati, ya'ni o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida korxona, tashkilot, muassasaga haqiqiy zarar yetkazilgan bo'lishi zarur;

Xodimning harakat yoki harakatsizligi aybli bo'lishi lozim, xodimning harakat yoki harakatsizligi natijasida kelib chiqqan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi lozim.

Mehnat kodeksining 316-moddasiga ko'ra **moddiy javobgarlik deb**, mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi mehnat shartnomasi tarafining boshqa tarafga yetkazilgan ziyonning o'rnini ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda qoplash majburiyatini ifodalaydigan yuridik javobgarlikdir. Zarar yetkazilgandan keyin mehnat shartnomasining bekor qilinishi ushbu shartnoma tarafini moddiy javobgarlikdan ozod etmaydi.

Taraflar o'rtasida moddiy javobgarlikni aniqlash tartibi esa Mehnat kodeksining 317-moddasida o'z ifodasini topgan, mehnat shartnomasi yoki unga yozma shaklda tuziladigan qo'shimcha kelishuv, shuningdek jamoa shartnomasi mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligini aniqlashtirishi mumkin. Bunda ish beruvchining xodim oldidagi shartnomaviy javobgarligi ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan kam bo'lmashligi, xodimning ish beruvchi oldidagi javobgarligi esa ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan yuqori bo'lmashligi kerak.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik – eng ko'p qo'llaniladigan javobgarlik turidir, fuqaro yoki mansabdor shaxsning huquqni buzganligi uchun davlat (ma'muriy organ) oldidagi jinoiy bo'lmagan javobgarligi. Bu davlatning majburlov chorasi bo'lib, davlat faoliyatining turli sohalarida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun qo'llanadi. Ma'muriy javobgarlik da odatda, jazo berayotgan ma'muriy organ bilan huquq normasini buzgan shaxs o'rtasida xizmat yuzasidan bo'ysunish munosabatlari bo'lmaydi.

Ekologik sohada quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

-jarima. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 25-moddasida belgilangan. Ekologik huquqbuzarliklar uchun belgilangan javobgarlik asosan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65-103-moddasida o'z aksini topgan.

-mamuriy huquqbuzarlik sodir etilish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish jazosi ma'muriy sud tomonidan belgilanadi. Masalan, ov qilish qoidalarini buzganda ov qurolini musodara qilish mumkun, biroq yerni xo'jasizlarcha egallab olinsa, yoki kamayib ketayotgan hayvonlarni noqonuniy ovlasa, bu xolatda davlatga qaytariladi.

-maxsus huquqdan mahrum qilish, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 28-moddasi va 90-moddasiga muvofiq ov qilish huquqi 15 sutkadan 3 yil muddatgacha maxrum qilinadi.

-ma'muriy qamoqqa olish, 3 sutkadan 15 sutkagacha, favqulotda xolatda jamoat tartibiga tajovuz qilsa 30 sutkagacha muddatga qo'llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish choralari homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi

tarbiyalayotgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Ekologik sohada jinoiy javobgarlik masalalari – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 2-moddasiga muvofiq, mazkur kodeksning maqsadlaridan biri bo'lib tabiiy muhitni jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 193-204-moddasigacha jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **193-moddasida ekologiya havfsizligiga oid norma va talablarni buzganlik uchun javobgarlik** nazarda tutilgan. Ushbu jinoyat sanoat, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa obyektlarni loyihalashtirish, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanishda belgilangan ekologik normalarni buzishdan iborat. Mazkur ekologik talablarga obyektlarni joylashtirishda shamol oqimi, sanitar zo'nalrga oid talablar, zararli moddalarni chiqarib tashlashning yo'l qo'yiladigan doiralri, obyektlarni ekologik ekspertizadan o'tkazish yoki uning salbiy xulosasi bo'lgan taqdirda obyektlarni qurilishi va ishga tushirilishining man etilishi kiradi. Ushbu moddada obyektlarni ishga tushirish uchun qabul qilish qoidalarini buzganlik, ya'ni ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni ishga tushirish uchun ham javobgarlik belgilangan. Ekologik havfsizlik qoidalari O'zbekiston Respublikasining **"Rabiatni muhofaza qilish"** to'g'risidagi qonunini **41-moddasida**, tabiiy resurlar to'g'risidagi qonunlarning tegishli moddalarida hamda qonun osti aktlarida o'z aksini topgan. Ushbu normalarning mohiyati shundan iboratki obyektlarni qurish, loyihalashtirish, joylashtirish, ishga tushirish faqat tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan xoldagina amalga oshirilishi mumkun.

Jinoyatning **obyektiga** ekologik havfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qoidalar kiradi. Mazkur jinoyatning **subyekti bo'lib faqat mansabdor shaxslar** hisoblanadi, ularning qatoriga loyihani tasdiqlovchi, ma'lum bir ishlarga ruhsat beruvchi, yuqorida ko'rsatilgan obyektlarni qabul qilib oluvchi yoki ekologik havfsizlik talablarni bajarilishini tashkil etuvchi yohud nazorat qiluvchi mansabdor shaxslar kiradilar.

Jinoyatning **subyektiv tomoni** ehtiyotsizlik aybi hisoblanadi. Jinoyatning **obyektiv tomoni** mazkur mansabdor shaxslarning aybli harakati(ishga tushirish bo'yicha ruhsat berish, loyiha talablarini buzib, uni amalga oshirish va.h.k) yoki harakatsizligi(tozalash uskunalarini ta'mirlamaslik, ulardan foydalanmaslik va.h.k) kabilarda ifodalanadi.

Atrof tabiiy muhitni ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni **qasddan yashirganlik yoki buzib ko'rsatish** uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 194-moddasida belgilangan. "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunning 28-moddasiga muvofiq shunday ma'lumotlarni taqdim etish atrof tabiiy muhitning xolati, tabiiy resurlardan foydalanish ustidan kuzatuv, mahsus vakolat berilgan organlar, shuningdek faoliyati atrof tabiiy muhitning xolatini

yomonlashtiradigan yoki yomonlashtirishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kuzatuv ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga belgilangan tartibda berishi shart.

Jinoyat kodeksining 195-moddasida atrof tabiiy muhitni ifloslanishi oqibatlarini bataraf erish choralarini ko'rmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur jinoyatning ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi 95-moddada belgilangan holatdan oqibat nuqtaiy nazaridan farq qiladi, yani jinoiy javobgarlik 195-moddada belgilangan xolat ommaviy kasallanishga yoki hayvonlarning qirilishiga yoki boshqa og'rir oqibatlarga sabab bo'lsa, xosil bo'ladi.

Shu o'rinda og'ri oqibat tushunchasiga aniqlik kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, turli manbaalarda turlicha talqin qilingan lekin aniq xolatlari mavjud emas, misol uchun insoniyatning og'ir betoblighi, tuzalmas kaslaga chalinganligi, yoki azolarining hir qismidan ajraganlik xolati, hamma turlichi buni talqin etishi mumkin, biroq aniq huquqiy asos mavjud emas.

Jinoyat kodeksining alohida ekologik sohadagi jinoyatlar uchun tegishli tartibda mahsus bob ajratilgan, unda deyarli barcha turdagi ekologik jinoyatlarni qamrab olgan, albatda bu normalarni jamiyatga tatbiq qilish, bu borada fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirishimiz, ushbu qonunning yana ham to'g'ri qo'llanilishi yoki ushbu jinoyatni oldini olish chorasi sifatida o'zining alohida o'rniga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan aniq huquqiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Jumladan, O'zbekiston **Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi** "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq Bosh prokuratura shtat tuzilmasida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi hamda Bosh prokurorning mas'ul o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Ta'kidlash joizki, Davlat Rahbarining ekologik qonunchilik ijrosi ustidan nazorat soxasida prokuratura organlariga bo'lgan yuqori ishonch namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimizning PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan **"O'zbekiston-2030" strategiyasini** "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturini belgilanishi ham ekologiya soxasida davlat siyosatini amalga oshirishdagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

O'tgan 2023 yilda prokuratura organlari tomonidan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 564 ta tekshirishlar o'tkazilib, 3889 ta turli qonunbuzilishi holatlari aniqlangan.

Tekshirishlar natijasiga ko'ra, 404 ta noqonuniy hujjatlarga protest keltirilgan, qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan 610 ta taqdimnomalar kiritilgan, 535 nafar mansabdor shaxslar intizomiy, 1343 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan, 639 mln so'mlik zararlarning ixtiyoriy qoplanishi ta'minlangan, 821 nafar mansabdor shaxslar qonunlarni buzmaslik haqida ogohlantiruv e'lon qilingan hamda qo'pol qonunbuzilish holatlari yuzasidan 176 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilib, **11 620 nafar shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan.**

Qayd etish joizki, mazkur yo'nalishdagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan samarali prokuror nazoratini avvalo mutaxassislar jalb qilingan holda qonuniylikni, yuklatilgan vaziflarni bajarilishi ahvolini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to'plangan boshqa ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, asoslantiruvchi hujjatlarni tekshirish, shuningdek ularni solishtirish orqali o'rganish orqali ta'minlash muhim hisoblanadi.

Shu kabi, prokuror tekshiruvlari muayyan maqsadga yo'naltirilgan holda nazorati tartibida o'tkaziladigan hamda prokuratura nazorati bilan bog'liq bo'lmagan tekshiruvlar (misol uchun: xuquqiy hujjatlarning qonuniyligi yuzasidan tekshiruvlar)ga ajratilishi ham mumkin.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishda tekshiruvlarni tashkillashtirish borasida Bosh prokurorning 24.11.2017 yildagi **"Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"**gi 166-sonli sohaviy buyrug'i mavjud bo'lib, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof muhitni muhofaza qilish, chiqindilarning fuqarolar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olishga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan nazorat kuchaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, ushbu sohada amalga oshiriladigan nazorat tadbirlarida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari to'g'risidagi, atmosfera havosini, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosiga alohida e'tibor qaratish talabi ham bayon etilgan.

Bundan tashqari, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni sifati, ta'sirchanligi va samaradorligini oshirish maqsadida nazorat tadbirlarida quyidagi:

- ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar bilan tanishib chiqish;
- tekshiruv o'tkazish mumkin bo'lgan subektlari ro'yxatini shakllantirish;
- ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari hamda muassasalariga yuklatilgan funktsiya va vazifalarni bilish;
- aniq maqsadga yo'naltirilgan savollardan iborat sifatli tekshirish rejasini tuzish;
- statistik va boshqa ko'rsatkichlar, murojaatlarning soni va ularning natijalari haqidagi umumiy ma'lumotlarni tahlil olish;

- yuridik xizmat ishining samaradorligini o'rganish;
- tekshirish qamrab olingan davr mobaynida qabul qilingan huquqiy hujjatlar (buyruq va h.k.) ro'yxatini olish;
- tekshirish qamrab olingan davr mobaynida qabul qilingan huquqiy ta'sir choralari ro'yxatini olish va boshqa faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni lozim bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini ta'minlashda nazorat tadbirlarini to'laqonli va sifatli o'tkazish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ushbu sohani tartibga solinishiga hamda mavjud muammolarni hamda sodir etilayotgan ko'plab huquqbuzarliklarni bartaraf etilishiga imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 29.08.2001 yildagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.10.2018 yildagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3956-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son Farmoni.